

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/30.12.2019.Ped.72.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

JABBOROVA SAODAT ZOIROVNA

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI KICHIK GURUH
TARBIYALANUVCHILARINI OILADA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA
AXLOQIY TARBIYALASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERAT

Buxoro – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical
sciences**

Jabborova Saodat Zoirovna

Мaktabgacha ta'lim tashkiloti kichik guruh tarbiyalanuvchilarini oilada milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalash metodikasini takomillashtirish..... 3

Жабборова Саодат Зоировна

Развитие методики нравственного воспитания детей младшего дошкольного возраста в семье на основе национальных ценностей..... 24

Zhabborova Saodat Zoirovna

Development of methods of moral education of children of early preschool age in the family on the basis of national values 48

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ 52
List of published works.....

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/30.12.2019.Ped.72.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

JABBOROVA SAODAT ZOIROVNA

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI KICHIK GURUH
TARBIYALANUVCHILARINI OILADA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA
AXLOQIY TARBIYALASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERAT

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Ped.6876 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “ZiyoNet” axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Jumayeva Mehribo Abduvohidovna**
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ,dotsent.

Rasmiy opponentlar: **Raxmankulova Nargiz Xadjiakbarovna**
pedagogika fanlari doktori (DSc) ,professor.
Qurbonova Go‘zal Rajab qizi
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ,dotsent.

Yetakchi tashkilot: **Guliston davlat universiteti.**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil “ ” soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko‘chasi 11-uy. Tel.: (99865) 221-29-14; faks: (99865) 221-27-07; E-xat: bsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: Buxoro viloyati Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko‘chasi 11-uy. Tel.: (99865) 221-29-14; faks: (99865) 221-27-07; E-xat: bsu_info@edu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “ ____ ” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “ ____ ” _____dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).



S.Q. Qahhorov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor

F.X.Xazratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi,
p.f.f.d.,(PhD) dotsent

S.H.Olimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'limi xalqaro tashkilotlarining asosiy maqsadi: "XXI-asrga mos keladigan adolatli, inkluziv va barqaror ta'lim tizimi orqali bolalarni ta'lim-tarbiya olish uchun imkoniyatlarni kengaytirish, sifatli ta'lim natijalari va gender tenglikni ta'minlashdan iborat"¹ bo'lib, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Britaniya kengashi, Amerika kengashi, UNESCO², UNISEF³, JICA⁴, KOICA⁵ xalqaro tashkilotlarining hamkorlikdagi faoliyatlari zahirida sog'lom rivojlangan, adaptiv ijtimoiylashuv ko'nikmasiga ega, milliy qadriyatlar ruhida shakllangan yangi davr bolasini voyaga yetkazish asosiy vazifa qilib belgilangan. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning nostandart modellarini yaratish va ta'lim jarayoniga tadbiq etishda oila a'zolarining ilmiy salohiyati va tajribasini oshirish dolzarb ahamiyatga ega.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida, jumladan, Finlyandiya, Germaniya, Yaponiya, Norvegiya, Shvetsiya, Daniya, Belgiya davlatlarida bolalarni yoshligidan oilada milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalash muammosi ustuvor bo'lib, mazkur masala olimlar tomonidan doimiy tadqiqot markazida bo'lib kelmoqda. Zero, har bir bolada o'z oilasi misolida ko'rgan tasavvurlari: oiladagi o'zaro munosabatlar, oilaviy qadriyatlar, urf-odatlar, bayramlarda ishtirok etish, mehnat faoliyatida qatnashish kabilar orqali oila to'g'risidagi bilimlar mustahkamlanadi va ijtimoiylashuv jarayoni samarali kechadi. Ta'limning xalqarolashuvi jarayonida bolalarni oilaviy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashda ta'lim-tarbiya jarayoniga aksiologik yondashuv, bolalar va ota-onalarning qiziqishlariga qarab eng optimal metodik ta'minotini takomillashtirish dolzarbdir.

Mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish, maktabgacha ta'limning samarali tizimini takomillashtirish, bunda asosiy e'tiborni zamonaviy ta'lim berish orqali aksiologik yondashuvlarga qaratgan holda o'quv dasturlari mazmuniga oilada bolalarni qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashni ta'minlashga oid metodikalarni takomillashtirish⁶, ayniqsa, kichik guruh tarbiyalanuvchilari ongini oilaviy qadriyatlar asosida rivojlantirish uchun yetarlicha shart-sharoitlarni yaratish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga innovatsion va ilg'or xorijiy tajribalarni tatbiq etishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida, bolalar "ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasi kompetensiyalarida o'z "men"i va o'z galar shaxsining o'ziga xosliklari, bag'rikenglik, ijtimoiy jamiyatda axloqiy tarbiyalanganlik hamda o'zaro muloqot munosabatlarga kirisha olish

¹ Ta'lim bo'yicha global hamkorlik fondi (Global Partnership in Education, GPE) maqsadi

² Birlashgan Millatlar tashkilotining maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkiloti – xalqaro hukumatlararo tashkilot

³ Birlashgan millatlar tashkilotining bolalar jamg'armasi

⁴ Agentlik va Yaponiya xalqaro hamkorlik tashkiloti

⁵ Koreya Xalqaro hamkorlik agentligi

⁶ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi "2030-yilga qadar O'zbekiston respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi SQ-297-IV-son Qarori (<https://lex.uz/docs/5466673>)

kompetensiyalarini o'zlashtirishlari kerakligi belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida maktabgacha yoshdagi bolalar har tomonlama intellektual rivojlanishi, aqlan va jismonan sog'lom bo'lib ulg'ayishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ayniqsa, bolalarda zamonaviy ta'lim va tarbiya asosida qadriyatlarni anglash ko'nikmasini tarkib toptirishning metodik tizimini takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3651-son, 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi "Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 391-son, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi "2030-yilga qadar O'zbekiston respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi SQ-297-IV-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "I.Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bugungi kunda yoshlarda oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishini tashkil etib, mazkur sohada respublikamiz va xorijiy mamlakatlarda qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, oila, oila tarbiyasi, shaxs kamolotida oilaning o'rni, barkamol avlod tarbiyasi asosida, oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirishga oid tadqiqotlar S.Nishonova, F.R.Qodirova, M.Inomova, O.Musurmonova, V.Karimova, D.Holiqov, E.Seytxalilov, M.Tairova, D.Sharipova, A.Isimova, F.Abduraximovalar tomonidan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirish, mazkur jarayonda tarbiyachi va tarbiyalanuvchi shaxsiga qo'yilgan talablar, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, maktabgacha ta'limning o'ziga xos jihatlari T.Xurvaliyeva, S.Raximova, G. Qurbonova, Z.Ashurova, Sh.Ro'ziyeva, M.Arslanova kabi pedagoglar tomonidan o'rganilgan .

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan N.Andreyeva, O.Borisova, O.Ovsyannikova, I.Taran, V.Makarenko, L.Vigotskiy, B.Ananyev, I.Yevtushenko, Y.Konisheva, V.Kagan, I.Kon, Y.Magomedova, L.Rerina, T.Rerina, N.Radina, V.Shalin, L.Shustova, S.Fadeyev kabilarning tadqiqotlarida bolalarning oilada tarbiyasi, fikrlashi, dialogik muloqotni rivojlantirish, kichik yoshdan boshlab jamiyatga ijtimoiy moslashuvining metodik jihatlari tadqiq etilgan.

Xorijlik olimlardan W.Zimmerman, N.Barber, S.Conejero, I.Etxebarria, I.Montero, L.Toussaint, JR.Webb kabilarning tadqiqotlarida oilaviy tarbiyada gender

tarbiya asoslari, gender ta'limining o'ziga xosliklari, maktabgacha yoshdagi bolalarda gender tolerantlikni rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, kichik guruh tarbiyalanuvchilarini oilada milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalash yoshlarda, xususan, maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalalari alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida o'rganilmagan

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning konseptual – metodologik asoslari" mavzusi (2020-2024- y.y.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: maktabgacha ta'lim tashkiloti kichik guruh tarbiyalanuvchilarini oilada milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalash metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

milliy qadriyatlarning tarbiyaviy shakllanish mazmunini xalq og'zaki ijodi manbalari asosida aniqlashtirish;

kichik guruh tarbiyalanuvchilarini oilada milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalash jarayonini baholash indikatorlarining talablariga muvofiq tasniflash;

kichik guruh tarbiyalanuvchilarini oilada ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda bolaning xususiyatlarini shakllantirish imkonini ta'minlovchi usullardan foydalanish asosida takomillashtirish;

maktabgacha ta'lim tashkiloti kichik guruh tarbiyalanuvchilarini oilada milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashga oid metodik tavsiyalarni takomillashtirish.

Tadqiqotning obykti sifatida maktabgacha 3-4 yoshdagi bolalarda oilaviy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalash metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Navoiy, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlardagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 429 nafar respondent tarbiyalanuvchi, tarbiyachi va ota-onalar jalb qilingan.

Tadqiqotning predmetini maktabgacha yoshdagi kichik guruh tarbiyalanuvchilarini oilaviy milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalash metodikasini takomillashtirish jarayoni, modeli va texnologiyasini tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqotda qiyosiy, tanqidiy tahlil, pedagogik kuzatish, sotsiometrik suhbat, anketa, intervyu, pedagogik eksperiment, matematik statistika, ta'lim texnologiyalari, ijodiy o'yin usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

milliy qadriyatlarning tarbiyaviy shakllanish mazmuni tarixiy, ensiklopedik, pedagogik-psixologik hamda xalq og'zaki ijodi manbalaridagi bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda qo'llanilgan gnoseologik metodlarning faollashtiruvchi, motivatsiya uyg'otuvchi komponentlariga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

kichik guruh tarbiyalanuvchilarini oilada milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalash jarayoni bolaning xarakter xususiyati, psixologik-ma'naviy rivojlanishi, kreativ-pozitiv, faoliyatli-harakatchanlikni ta'minlovchi ijodiy o'yin mashg'ulotlarining didaktik tizimiga mos ravishda baholash indikatorlarining retrospektiv davriylik talablariga muvofiq tasniflangan;

kichik guruh tarbiyalanuvchilarini oilada ma'naviy-axloqiy tarbiyalash shakllari bolaning (emotsional, axloqiy o'z-o'zini boshqarish, shaxsiy ishchanlik) xususiyatlarini shakllantirish imkonini ta'minlovchi (immitatsion o'yinlar, refleksiv mashqlar, vizualizatsiya) usullardan foydalanishga yo'naltirilgan xalq og'zaki ijodining kichik janrlariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

maktabgacha ta'lim tashkiloti kichik guruh tarbiyalanuvchilarini oilada milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalash yo'llari bola shaxsiy sifatlari, ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohalarining shakllanganlik darajasi retrospektiv davriylik talablariga muvofiq ("Dasturxon atrofida", "Eng yoqimli hid", "O'yinchoqlar tashrifi", "Ona tasviri") ijodiy-tanqidiy, faoliyatli-amaliy o'yinlar orqali bola ongiga singdirishni ta'minlashga qaratilgan "Oila bag'rida - milliy qadriyatlar namunasi" o'quv seminar dasturi tavsiyalari orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o'z aksini topgan:

Tadqiqotning amaliy ahamiyati, mavzu doirasidagi izlanishlar natijasida oilada kichik yoshidagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning pedagogik-psixologik asoslari, kichik yoshidagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning samarali shakl, metod va vositalari, oila, mahalla, maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligi asosida oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik tashkiliy tuzilmasi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalari "Pedagogika", "Pedagogika tarixi", "Oila pedagogikasi", "Psixologiya", "Tarbiyaviy ishlar metodikasi", "Milliy tarbiya" fanlarining mazmunan boyitilishiga xizmat qiladi. Shuningdek, "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazlari, maktabgacha ta'lim tashkiloti mutaxassislari malakasini oshirish, mahalla fuqarolar yig'inlarida oilada kichik yoshidagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash bilan bog'liq davra suhbatlari, uchrashuvlar, ko'rik-tanlovlarni tashkil etishda foydalanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiq etilayotgan muammoga ilmiy-pedagogik yondashuv, tadqiqot maqsadi, obykti, predmeti, vazifalariga mos keluvchi metodlar majmuasidan foydalanilganligi, usullar ilmiy-metodik asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati "qadriyat", "oila", "axloq", "tarbiya", "ijodiy o'yinlar", "shaxsiy ibrat" tushunchalarining mazmun-mohiyati, aksiologik yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi kichik guruh tarbiyalanuvchilarida axloqiy shakllantirishning o'ziga xos tomonlari ochib berilganligi, maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy tarbiyalanganlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik, metodik xususiyatlarining aniqlashtirilganligi, aksiologik yondashuv asosida 3 - 4 yoshli bolani oilaviy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning didaktik imkoniyatlarining yoritib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati aksiologik yondashuv asosida 3 - 4 yoshli bolani oilaviy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalash jarayonlari bosqichlari va pedagogik shartlari aniqlashtirilganligi, maktabgacha yoshdagi bolani oilaviy

qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashda to'lerantlikni shakllantirish tuzilmasi maxsus o'yinli metodikalar, didaktik mashg'ulotlar hamda tarbiyaviy tadbirlar integratsiyasini ta'minlash orqali aksiologik yondashuvlarga asoslangan takomillashtirilgan model bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Maktabgacha 3 - 4 yoshli bolani oilaviy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalash metodikasini takomillashtirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

milliy qadriyatlarning tarbiyaviy shakllanish mazmuni tarixiy, ensiklopedik, pedagogik-psixologik hamda xalq og'zaki ijodi manbalaridagi bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda qo'llanilgan gnoseologik metodlarning faollashtiruvchi, motivatsiya uyg'otuvchi komponentlariga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan nazariyalar "Maktabgacha ta'limda boshqaruv va menejment" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 6-noyabrdagi 491-son buyrug'i, 491486-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, maktabgacha yoshdagi kichik guruh bolalarida axloqiy tarbiyalanganlik darajasini shakllantirishga yo'naltirilgan o'yin texnologiyalarini samarali qo'llash imkoniyati yaratilgan;

kichik guruh tarbiyalanuvchilarini oilada milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalash jarayoni bolaning xarakter xususiyati, psixologik-ma'naviy rivojlanishi, kreativ – pozitiv, faoliyatli-harakatchanlikni ta'minlovchi ijodiy o'yin mashg'ulotlarining didaktik tizimiga mos ravishda baholash indikatorlarining retrospektiv davriylik talablariga muvofiq tasniflangan taklif va tavsiyalardan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi faoliyatida foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-oktabrdagi 11-05-6149/04-son ma'lumotnomasi). Natijada, 3-4 yoshdagi bolalarni oilaviy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashga oid faoliyatni takomillashtirish usullari va omillariga oid nazariya va amaliy materiallar bilan boyitishga xizmat qilgan;

kichik guruh tarbiyalanuvchilarini oilada ma'naviy-axloqiy tarbiyalash shakllari bolaning (emotsional, axloqiy o'z-o'zini boshqarish, shaxsiy ishchanlik) xususiyatlarini shakllantirish imkonini ta'minlovchi (immitatsion o'yinlar, refleksiv mashqlar, vizualizatsiya) usullardan foydalanishga yo'naltirilgan xalq og'zaki ijodining kichik janrlariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan nazariy va amaliy tavsiyalardan oliy o'quv yurtlarining 60110200 - Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari, magistrlar va pedagoglar uchun mo'ljallangan "Milliy tarbiya" darsligining mazmunini boyitishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 – yil 11-noyabrdagi 429-sonli buyrug'i, 698 -raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, milliy tarbiyada oila va jamiyatning o'rni, shaxs kamolotida milliy o'zlikni anglash, inkluziv ta'lim tamoyillariga amal qilishga oid ilmiy bilimlari muayyan darajada oshganligi kuzatilgan.

maktabgacha ta'lim tashkiloti kichik guruh tarbiyalanuvchilarini oilada milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalash yo'llari bola shaxsiy sifatleri, ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohalarining shakllanganlik darajasi retrospektiv davriylik talablariga muvofiq ("Dasturxon atrofida", "Eng yoqimli hid", "O'yinchoqlar tashrifi", "Ona tasviri") ijodiy-tanqidiy, faoliyatli-amaliy o'yinlar orqali bola ongiga singdirishni

ta'minlashga qaratilgan "Oila bag'rida - milliy qadriyatlar namunasi" o'quv seminar dasturi tavsiyalari orqali takomillashtirish tadqiqi haqidagi xulosalardan Buxoro teleradiokompaniyasi ko'rsatuvlari mazmunini boyitishda foydalanilgan ("Buxoro" teleradiokompaniyasining 2024-yil 3-iyundagi 01-09-96-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tarbiyachilarning maktabgasha yoshdagi kichik guruh bolalarini oilada axloqiy tarbiyalashga oid syujetli-rolli o'yinlarni qo'llashga oid tajriba hamda mahoratini oshirish ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 8 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 27 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma va 1 ta monografiya chop etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 5 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 144 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, shuningdek, obekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Maktabgacha ta'lim tashkiloti kichik guruh tarbiyalanuvchilarini oilada milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida oilada bolalarni milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning pedagogik muammolari, milliy qadriyat turlari va ularning oilada bolalarni axloqiy tarbiyalashning pedagogik va psixologik xususiyatlari, mavzuga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili keltirilgan hamda aksiologik yondashuv nuqtayi nazaridan oilaviy qadriyatlarning bola shaxsi rivojlanishiga ijobiy ta'siri ilmiy asoslangan. “Oila”, “qadriyat”, “shaxs”, “tarbiya”, “aksiologiya” tushunchalari mohiyati, globallashtirish jarayonlarida bolalarni axloqiy tarbiyalashda oilaviy qadriyatlarning o'rni va ulardan foydalanishga bo'lgan e'tiborning dolzarbligi yoritilgan (1-rasmga qarang).



Oila - nikoh yoki tugʻishganlikka asoslangan, uning aʼzolari roʻzgʻorining birligi, oʻzaro yordami va maʼnaviy masʼuliyati bilan bir-biriga bogʻlangan jamiyatning kichik boʻgʻini hisoblanib, uning eng muhim ijtimoiy vazifalari - inson zotini davom ettirish, bolalarni tarbiyalash, oila aʼzolarining turmush sharoitini va boʻsh vaqtini samarali uyushtirgan holda ijtimoiylashuviga yordam berishga asoslanadi. (Qomus.info)



Qadriyat - voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy maʼnaviy ahamiyatini koʻrsatish uchun qoʻllanadigan tushuncha boʻlib, milliy qadriyatlar aynan har bir millatning oʻziga xos yashash tarzidankelib chiqib shakllanadi.



Shaxs - alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy axloqiy olam boʻlib, oʻzida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini ifoda etadigan oʻta murakkab, mavjudot sifatida, biologik, fiziologik, ijtimoiy, maʼnaviy, ruhiy, axloqiy va estetik aqli idrok, tafakkur obyekti hisoblanadi.

Tarbiya - shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, maʼnaviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan, insonning insonligini taʼminlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat boʻlib, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur boʻlgan xususiyatlari yigʻindisidir.



Aksiologiya - yunon tilidan olingan boʻlib, qadriyatlar toʻgʻrisidagi fandir. Oilada bolalarni milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning ilmiy nazariy asoslari yuqoridagi pedagogik terminlar mazmunining oʻzaro aloqadorligi bilan toʻgʻliq boʻlib, taʼlim-tarbiya jarayoni samaradorligini taʼminlashga xizmat qiladi.

1-rasm. Milliy qadriyatlarga oid tushunchalar mazmuni

Milliy qadriyatlar asosida bolalarni axloqiy tarbiyalash masalasi qadimdan bugungi kunga qadar dolzarb hisoblanib, bu borada Kaykovusning «Qobusnoma», M.Koshgʻariyning «Devonu lugʻotit turk»⁷, A.N.Forobiyning «Fozil odamlar shahri»⁸, Abu Ali ibn Sinoning „Axloq haqidagi risola“⁹, A.Navoiyning «Odob va odoblilar»¹⁰, A.Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq»¹¹ kabi asarlarida oilada axloqiy tarbiya berishning ijtimoiy ahamiyati keng yoritilgan.

Oilada milliy qadriyatlar asosida bolalarni axloqiy tarbiyalash masalasi bilan A.Munavvarov¹², M.Inomova¹³, O.Safarov¹⁴, O.Musurmonova¹⁵ kabilar oila tarbiyasiga oid tadqiqotlarida oila maʼnaviyati, farzandni sogʻlom turmush tarziga juda yoshligidan boshlab odatlantirish, bolalarni maʼnaviy axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish, oʻzbek oilachiligida xalq ogʻzaki ijodidan foydalanish muammolari tadqiq qilinib, oilada maʼnaviy tarbiyani takomillashtirishning zamonaviy usul va vositalari, bu sohada ajdodlarimiz tomonidan ilgari surilgan gʻoya va qarashlar chuqur tahlil qilingan.

Kichik yoshdan boshlab oilada bolalarni oilaviy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalash jarayoni ularning yosh xususiyatiga asoslangan holda bosqichlarga boʻlingan (1-jadvalga qarang). Bolalarga axloq-odob qoidalarini oʻrgatish, ularda mehmondoʻstlik, oʻzaro hamkorlik, mehnatga muhabbat, ilm olish va kasb-hunar

⁷ Koshgʻariy, Mahmud. Devonu-lugʻati-t-turk (Turkiy soʻzlar devoni) / Nashrga tayyorlovchi Q. Sodiqov. – Toshkent: Gʻ. Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.

⁸ Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri / A. N. Forobiy ; tarj.: A. Irisov, M. Mahmudov ; muharrir M. Xayrullayev . – Toshkent : Yangi asr avlodi, 2022. – 319 b. – 1000 ekz. – ISBN 978-9943-27-613-0 : 15826 s. – Текст : непосредственный.

⁹ „Axloq haqidagi risola“ nomli

¹⁰ Alisher Navoiy. Nomi: «Odob va odoblilar». Nashriyot: «Sano-standart» nashriyoti. Hajmi: 289 bet.2016.

¹¹ A.Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asari. 1913yil.

¹² A.Munavvarov Pedagogika.-T"O'qituvchi".1996.

¹³ M. Inomova. «Oilada bolalarning maʼnaviy-axloqiy tarbiyasi». Toshkent. 1999.

¹⁴ O.Сафаров., М.Махмудов. Оила маънавияти. «Маънавият», Т.,1998.Б.104.

¹⁵ O Musurmonova Maʼnaviy barkamol shaxsni shallantirish-jamiyat taraqqiyotining asosi-T.:«Fan va texnologiya,2012

egallashga nisbatan ishtiyoq uyg‘otish, vatanparvarlik va qon-qardoshlik tuyg‘usini shakllantirishga asosiy e‘tiborni qaratish ustuvor hisoblangan.

1-jadval

Maktabgacha ta‘lim tashkilotidagi bolalar shaxsining shakllanish bosqichlari

3-4 yosh	4-5 yosh	6-7 yosh
bola emotsional jihatdan o‘z-o‘zini boshqara oladi	axloqiy o‘z-o‘zini boshqara oladi	shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatining shakllanishi bilan xarakterlanadi

Maktabgacha davrda axloqiy tushunchalar borgan sari qat‘iylasha boradi. Axloqiy tushunchalar manbai sifatida, ularning ta‘lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanayotgan oila a‘zolari, tarbiyachilar, tengdoshlari ham bo‘lishi mumkin. Axloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shuningdek, kattalarning ayniqsa, onalarning maqtovi va tanqidlari ta‘sirida o‘tadi va mustahkamlanadi. Bola doimo rag‘batlantiriladi, ayniqsa maqtov olishga harakat qiladi. Bu rag‘batlantirishlar va maqtovlar bolaning muvaffaqiyatga erishishga bo‘lgan harakatlarining rivojlanishida, shuningdek, uning shaxsiy hayoti hamda uning kasb tanlashida ahamiyati juda kattadir.

Oila hayotning abadiyligi, avlodlarning davomiyligini ta‘minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni sayqalaydigan, shu bilan birga, kelajak avlod qanday shaxs bo‘lib yetishishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘idir. Oilaga xos an‘analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. O‘zbek oilasining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri oilada yoshi ulug‘ bobo - buvilarning yuksak mavqe va martabaga egaligi bo‘lib, ularga hamisha izzat-ikrom ko‘rsatiladi, barcha masalalarda ular bilan maslahatlashib, so‘ng faoliyatni boshlashga amal qilinadi.



2- rasm. Oila tarbiyasining maqsadlari va uslublari.

O‘zbek oilasiga xos mazkur xarakterli xususiyatlarni alohida e‘tirof etib o‘tishdan maqsad shuki, “oila tarbiyasi” ning o‘ziga xos qirralari ana shundagina to‘la-to‘kis namoyon bo‘ladi. Bu tarbiya jarayonida milliy-madaniy merosning qanday o‘rin tutishi, salmog‘i, ahamiyati xususida asosliroq fikr yuritish imkoniyati paydo bo‘ladi. Ko‘p yillar davomida ota-bobolarimiz qalbiga singib ketgan milliy qadriyatlarni bugungi


kunda yanada sayqallash kerakligini zamon talab etmoqda. Oila tarbiyasi¹⁶ - bu oila a'zolari, ayniqsa ota-onalar tomonidan bolalarni tarbiyalash va ularga kerakli bilim, ko'nikma va qadriyatlarni shakllantirish jarayoni. Bu bolaning shaxs sifatida shakllanishidagi eng muhim omillardan biridir.

Oila tarbiyasining samaradorligi ota-onalar bolalarning hayotida qanchalik ko'p ishtirok etsa, ularning tarbiyalash ta'siri shunchalik katta bo'ladi; avtoritar-demokratik tarbiya uslubi bolalarning ijobiy rivojlanishi bilan bog'liq; ota-onalarning uyg'un munosabatlari bolalar uchun ijobiy muhit yaratadi; ota-onalar tarbiya uslublarini bolalarining individual ehtiyojlariga moslashtirish kabi omillarga bog'liq (3- rasmga qarang).



3- rasm. Oila tarbiyasining samaradorlik omillari


3-4 yoshli bolalarni oila qadriyatlari asosida axloqiy tarbiyalashda bolalar bilan samarali vaqt o'tkazish; bolalarga ijobiy qadriyatlarni o'rgatish; bolalar bilan aniq qoidalar va chegaralar belgilash; bolalarning fikrlariga quloq solish va ularni hurmat qilish; bolalaringizni ularning kuchli va zaif tomonlariga ko'ra tarbiyalash; oilaviy an'analar va faoliyatlarni yaratish orqali oilaviy bog'liqlikni mustahkamlash; kerak bo'lganda mutaxassislardan yordam olish kabilarga e'tibor qaratish lozimligi olingan anketa savollariga berilgan javoblarida o'z aksini topgan. Oilaviy qadriyatlar asosida 3-4 yoshli bolalarni axloqiy tarbiyalash mazmuni va tashkil etilishi quyidagi vazifalarda o'z aksini topadi (4-rasmga qarang).



4- rasm. Oilaviy qadriyatlar asosida 3-4 yoshli bolalarni axloqiy tarbiyalash mazmuni va uni tashkil etish vazifalari

3-4 yoshli bolalar tez o'zgarib turadigan va rivojlanib borayotgan shaxs bo'lib, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ularning xarakter xususiyatlari quyidagi shaxsiy sifatlarni o'z ichiga oladi (5-rasmga qarang).

¹⁶ Mualliflik yondashuvi



5-rasm. 3-4 yoshli bolalarning shaxsiy sifatleri

3-4 yoshli bolalarni oilaviy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning dinamik tizimini rivojlantirish orqali biz qadriyat va oilaviy qadriyat tushunchasiga o'zimizning mualliflik yondashuvimizni keltirdik:

Qadriyat - shaxsning axloqiy dunyosi, yashash tarzi va faoliyati uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan, uning kamol topib, ulg'ayishi va jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin egallagan moddiy va ma'naviy boyliklari yig'indisidir.¹⁷

Oilaviy qadriyat – aksiologik va zamonaviy yondashuvlarga asoslangan moddiy, ijtimoiy va ma'naviy hayot qadriyatlarini shaxs shakllantirish va tarbiyalashning funksional va tarixiy rivojlanishini amalga oshiruvchi ijtimoiy jarayon.¹⁸

3 - 3,5 yoshlar oraliq'ida o'zlarining muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklariga o'z munosabatlarini bildiradilar; 4 yoshli bolalar esa o'z imkoniyatlarini real baholay oladilar. Bu jarayon tadqiqot davomida o'z isbotini topdi.

Dissertatsiyaning **“Kichik guruh tarbiyalanuvchilarini oilada milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning pedagogik shart - sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida oilada 3-4 yoshli bolalarni milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning mazmuni va didaktik imkoniyatlari, aksiologik yondashuvlar asosida takomillashtirishning shakl, usul va vositalari hamda kichik guruh tarbiyalanuvchilarini milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning takomillashtirilgan modelida o'z aksini topgan.

Kichik guruh tarbiyalanuvchilarini oilada milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning didaktik imkoniyatlarini tahlil qilish uchun quyidagi jihatlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Tadqiqotda o'rganilgan didaktik imkoniyatlarni samarali

¹⁷ Mualliflik yondashuvi

¹⁸ Mualliflik yondashuvi

qo'llash orqali kichik guruh tarbiyalanuvchilarini milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning muhimligi shundaki, bu jarayon izchillik, muntazamlilik va oilaviy hamkorlikni talab qiladi. Bunda oilaviy an'analar va urf-odatlar, ota-onalarning namunasi, oilada muloqot madaniyati, oilaning shakllanganlik darajasi va jamiyatdagi ijtimoiy o'rni muhimdir. 3-4 yoshli bolalarni oilada milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning didaktik imkoniyatlarini tahlil qilish uchun quyidagi jihatlari o'rganib chiqildi (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

Kichik guruh tarbiyalanuvchilarini oilada milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalash mazmuni

№	Tarbiya jarayonlari	Tarbiyalash mazmuni
1	Milliy qadriyatlarning aniqlanishi va tizimlashtirilishi	qadriyatlarni tanlash; qadriyatlarning ierarxiyasi; zamonaviy talqin.
2	Didaktik usullar va vositalar	oilaviy muhitni tahlil qilish; interaktiv usullar; milliy adabiyot va san'atdan foydalanish; o'yinlar va mashg'ulotlar; ota-onalar bilan hamkorlik; baholash usullari.
3	Kichik guruhning o'ziga xos xususiyatlari	guruhning yoshi va rivojlanish darajasi; guruhning madaniy va ijtimoiy xususiyatlari; individual yondashuv.
4	Kuzatuv va tadqiqot	tadqiqot natijalarini umumlashtirish va amaliyotga tatbiq etish.

Kichik guruh - 3-4 yoshli bolalarda mustaqillik ortib boradi, hissiyot hamda sensor idroki rivojlanib boradi va ularda jamoa bo'lib o'ynash ko'nikmalari shakllanadi. Turli o'yinlarni o'ynash orqali amalga oshiriladigan mehnat faoliyatini farqlash imkoniyati kengayadi. O'yinlar ularning kognitiv rivojlanishi, ijtimoiy ko'nikmalari va dunyo haqidagi tushunchalarini boyitadi. "Kattalar kabi bo'lay, ishlar qilib o'rgatay!" shioriga amal qilgan holda:

- "Oshpazchalar" o'yini orqali ovqat tayyorlash, dasturxon tuzash va yig'ishtirish kabi mehnat turlarini ajratish, ovqat tayyorlashning bosqichlarini, idish yuvish va joylashtirishni, umumiy dasturxon xizmati kabi mehnat turlarini;

- "Uy bekalari/xonadon egalari" o'yini orqali tozalash, buyumlarni joylashtirish, kiyim-kechaklarni tartibga solish kabi uy ishlarini;

- "Bog'bonchalar" o'yinini orqali o'simliklarni parvarish qilish, sug'orish, ekish kabi tabiat bilan bog'liq mehnatning bosqichlarini tushunadi va tirik mavjudotlarga g'amxo'rlik qilishni;

- "Kim nima qiladi?" suratlar o'yini orqali turli kasb egalarining ishlarini va ularga tegishli anjomlarni farqlashni, har bir kasbning o'ziga xos vazifasi borligini, ular turli anjomlar yordamida bajarilishini;


- "O'yinchoqlarni saralash va joylashtirish" o'yini asosida "mashinalar uchun quti", "kubiklar uchun savat", "yumshoq o'yinchoqlar joyi" kabilarni anglab boradi va ularni saralash, tartibga solish, joylashtirish kabi mehnat turlarining ahamiyatini va ularning natijasini farqlashni o'rgana boshlaydi.

Tasviriy faoliyat hamda ko'rish-yasash faoliyatining dastlabki ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Uch yoshli bolalarning diqqati qisman markazlashadi, xotirasi mustahkamlanib boradi, moddiy borliqni idrok etish jarayoni boshlanadi, faraz qilish

imkoniyatlari vujudga keladi. Bunda o‘yin faoliyati yetakchi rol o‘ynaydi. Mazkur dastur aynan mana shu faoliyatni kengaytirishga va rivojlantirishga keng yo‘l ochishda ta’limiy mashg‘ulotlar tizimini belgilab berishga yo‘naltirilgan.

Bunda oila a‘zolaridan namuna bo‘lish, vazifalarni to‘g‘ri taqsimlab berish, ularning har bir natijasini maqtash va rag‘batlantirish, lug‘atini boyitish, sabrli bo‘lish, doimiy tarzda o‘yinlar mazmunini yangilab turish, ularga yangi elementlar qo‘shish yoki o‘yinchoqlarni almashtirib turish tavsiya etiladi. Ushbu kabi o‘yinlar orqali bolalar nafaqat mehnat faoliyatini farqlashni o‘rganadilar, balki mas‘uliyat, tartiblilik, o‘zaro yordam va ijodkorlik kabi muhim ko‘nikmalarni ham rivojlantirishda o‘ziga xos natijani ta‘minlashi tajriba - sinov davomida dalillandi.

Tadqiqot davomida kichik guruh tarbiyalanuvchilarini oilada milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning didaktik imkoniyatlari juda kengligi ko‘zga tashlanib, bunda quyidagi yo‘nalishlarda olib borilgan tajriba-sinov ishlari o‘z samaradorligini ko‘rsatdi (6-rasmga qarang).



6-rasm. Kichik guruh tarbiyalanuvchilarini oilada milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalash yo‘nalishlari

Maktabgacha yoshdagi bola uchun o‘yin - bu o‘z manfaatlari, istaklari, afzalliklari, xayollarini ro‘yobga chiqarish, har ikkala jins vakillari bilan o‘zaro


munosabatda bo'lish tajribasini to'plash, selektivlik, tanlov erkinligi, tashabbuskorlik, mustaqillik, ijodkorlik ehtimoli mavjud bo'lgan maxsus dunyo. O'yin maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaga turli xil ijtimoiy rollarni, munosabatlarni sinab ko'rishga, ko'plab ijobiy his-tuyg'ularni, ta'surotlarni, unutilmas, quvonchli daqiqalarni topishga imkon beradi.

Rolli o'yinlar bola uchun uning shaxsiy rivojlanishi va axloqiy tarbiyalanishda eng yaxshi usuli hisoblanadi. Masalan, "Bolani beshikka belash", "Duk urdi", "Bobo suv ichdi", "Kulcha dumalatdi", "Uyimizga mehmon keldi", "Buvim alla aytganda", "Ota va onamga sovg'a", "Kim bo'lmoqchiman?" kabi o'yinlar mazkur maqsad uchun aynan mos. Yuqorida keltirilgan har bir o'yinda o'zbekona urf-odat, qadriyat, o'ziga xoslik, milliy tarbiya elementlari mavjudki, bunda maktabgacha ta'lim yoshidagi kichik guruh bolalari o'zi bilmagan holda uyda ko'rganlarini eslab, oila a'zolari harakatlarini takrorlashga, ularga o'xshab rollarni bajarishga harakat qilishadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti kichik guruh tarbiyalanuvchilarini oilada milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashda qo'llaniladigan o'yinlar o'zining zarur komponentlariga ega bo'lib, ular:

- o'yinda qatnashuvchilar; - o'yin qoidalari; - o'yinning vaqti; - o'yinning syujeti; - o'yinning rekviziti; - o'yinning yakuni (natijalari, qonun-qoidalariga rioya qilinishi) kabilardir.

Bog'cha yoshidagi bolalar xayolining o'sishiga faol ta'sir qiluvchi omillardan yana biri - ertaklardir. Bolalar hayvonlar haqidagi turli ertaklarni eshitganlarida shu ertaklardagi obrazlarga nisbatan ma'lum munosabatlari yuzaga keladi. Bog'cha yoshidagi bolalarda yoqimli va yoqimsiz his-tuyg'ular g'oyat kuchli va juda tez namoyon bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarning his-tuyg'ulari ko'p jihatdan ularning organik ehtiyojlarining qondirilishi va qondirilmaslari bilan bog'liqdir. Bu ehtiyojlarning qondirilmaslari sababli bolada noxushlik, norozilik, iztiroblanish tuyg'ularini qo'zg'aydi. Katta bog'cha yoshidagi bolalarda burch hissi - «nima yaxshiyu», «nima yomon»ligini anglashlari bilan ularning axloqiy tasavvurlari orasida bog'liqlik bor. Kattalar tomonidan buyurilgan biron topshiriqni bajarganlarida mamnunlik, shodlik tuyg'ulari paydo bo'lsa, biron tartib qoidani buzib qo'yganlarida xafalik, ta'bi xiralik hissi tug'iladi. Shuningdek, bog'cha yoshidagi bolalarda ma'naviy hissiyotlardan o'rtoqlik, do'stlik va jamoachilik hislari ham yuzaga kela boshlaydi. Bolaning bog'cha yoshidagi davrida estetik hissiyotlari ham ancha tez o'sadi. Bog'cha yoshidagi bolalarda estetik hisslarning namoyon bo'lishini, ayniqsa, ularning chiroyli, yangi kiyim-bosh kiyganlarida juda yaqqol ko'rish mumkin.

